

O'qitiladigan fanlar

Nº	Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
Bakalavriat yunalishlari buyicha o'tiladigan fanlar ro'yxati		
1.	Gidrotexnika inshootlari	talabalarga gidrotexnika inshootlari sohasida ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari suv xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan barcha gidrotexnika inshootlari turlari, konstruksiyalari, ularning ishlash sharoitlari, hisoblash va loyihalash asoslari, gidrotexnika inshootlari va gidrouzellarini loyihalashni orgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.
2.	Gidrotexnika inshootlari ishonchliligi va xavfsizligi	Gidrotexnika inshootlaridan foydalanishdagi ishonchliligi va xavfsizligi fanining maqsadi – talabalarga foydalanilayotgan gidrotexnika inshootlari xavfsizligi, xavfsizlik nazariyalari asosida ishga layoqatliliginin baholashni o'rnatishdan iborat hamda ishonchlilik va xavfsizlik bo'yicha mutaxassislik profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.
3.	Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi (tanlov fani)	talabalarga gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti xujjatlari, gidrotexnika inshootlaridan foydalanishdagi ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlashda ekspluatatsiya qilinayotgan gidrotexnika inshootlarining ishonchliliginin baholash, xavfsizlik mezonlarini va xavfsizlik kategoriyalarini aniqlashni, gidrotexnika inshootlari xavfsizligini belgilovchi omillar hamda mavjud suv omborlari va yirik gidrouzellar texnik holati va bexatar ishlashini nazorat qilish (kuzatish) ishlarini tashkil qilish. Nazorat-o'lchov apparaturalarini avtomatlashtirish printsplari, gidrotexnika inshootlari ishlash muddatlarini taxlil qilish hamda nosozklarni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish. Kanallarda yuz beradigan filtratsiya va loyqa cho'kish jarayonlari hamda ularga qarshi chora – tadbirlar. Suv omborlari, sel-suv omborlari va selxonalardan foydalanish, ularni to'ldirish va bo'shatish grafiklarini tuzish hamda suv omborlari, sel-suv omborlari va selxonalarda olib boriladigan kuzatishlar tarkibi va ketma-ketligi. Suv omborlari va yirik gidrouzellardan foydalanishdagi asosiy muammolar. Suv omboridagi suv chiqazgichning zatvorlar ochilishi balandligi va suv o'tkazish qobiliyatini o'rganish. Xavfli vaziyatlarda gidrotexnika inshootlari xavfsizligi baholash, ularning xavfsizligi mezonlari tushunchasi.
4.	Gidrotexnika inshootlari hisobi (tanlov fani)	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga gidrotexnika inshootlari sohasida ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari suv xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan barcha gidrotexnika inshootlari turlari, konstruksiyalari, ularning ishlash sharoitlari, hisoblash va loyihalash asoslari, gidrotexnika inshootlari va gidrouzellarini loyihalashni orgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

5. Gidrotexnika inshootlari. Nasos stansiyalarining texnologiyalari va qurilmalari Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga suv xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan gidrotexnika inshootlari, nasos stansiyalarining texnologiyalari va qurilmalari, tuzilishi va konstruksiyalarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.
6. Gidrotexnika inshootlarida raqamli texnologiyalar Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.
7. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xizmatining tuzilishini;
 - gidrotexnika inshootlar ish rejimlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
 - gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi tu'g'risida tushunchaga ega bulishii;
 - gidrotexnika inshootlari, ularning ishlash sharoitlarini bilishi.
 - gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi sohasida ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini bilishi;
 - gidrotexnika inshootlaridan foydalanish jarayonida olb boriladigan nazoratlar, qo'llaniladigan nazorat o'Ichov asboblari (NO'A) haqida bilishi va ulardan foydalana olishi.
 - gidrotexnika inshootlar va ular tarkibidagi elementlarining kamchiliklari va shikastlanishlarini aniqlash, ularni ta'mirlashni, ekspluatatsiya xizmatida faoliyat olib borish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
8. Gidrotexnikaga kirish (tanlov fani) Fanning asosiy maqsadi - talabalarda suv xo'jaligida gidrotexnika inshootlarining roli; gidrotexnika inshootlari turini tanlash va ularning joylashishi (kompanovkasi) bilan bog'liq savollarni echish uchun tabiiy sharoitlarni (relef, geologiya, gidrogeologiya, iqlim sharoitlari, mahalliy qurilish materiallari mavjudligi va boshqalar) baholash asosiy prinsiplari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.
 Fanning vazifasi - talabalarga gidrotexnika inshootlari konstruksiyalarini hisobiy asoslash va loyihalashtirish usullari; gidrotexnika inshootlarining atrof – muhitga ta'siri, texnik-iqtisodiy faktorlari, ekspluatatsiyasi (ishlatilishi), qurilish ishlarini bajarish sharoitlari; suv resurslarining kompleks ishlatilishini hisobga olib daryodagi inshootlar bo'g'inalarini va alohida inshootlarni loyihalashtirish prinsiplari bilan tanishtirish; gidrotexnika inshootlari qurilishida ilmiy – texnik taraqqiyot bosh yo'nalishlari, yig'ma konstruksiyalarning keng ishlab chiqarilishi, qurilishning unifikatsiya va industrializatsiya prinsiplari, texnik estetikasi, me'morchiligi va ularning gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirishda va qurishda o'rni; gidrotexnika inshootlari qurilishida hosil bo'ladigan masalalarni echish uchun olingan bilimlarini amaliyotda ishlatilishi to'g'risida talabalarga o'rgatishdan iborat.

9. Gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash
- gidrotexnika inshootlar buzilishi turlari va ularning ta'mirlash xususiyatlari, ta'mirlash va qayta tiklash turlarini bilishi;
- gidrotexnika inshootlar ta'mirlash turlariga muvofiq kerakli xarajatlarini aniqlash tartiblari, mudatlari, moliyalashtirilishi, ta'mirlashdan so'ng ishga qabul qilishi tartibini bilishi;
 - gruntli gidrotexnika inshootlari va ularning tarkibiy elementlarining ta'mirlash usullari va texnologiyalarini bilishi;
 - betonli gidrotexnika inshootlari va ularning tarkibiy elementlarining ta'mirlash usullari va texnologiyalarini bilishi;
 - gidrotexnika inshootlarining turiga muvofiq rekonstruksiysi turlari va sxemalarini bilishi lozim
 - turli gidrotexnika inshootlarining ta'mirlash va rekonstruksiya haqida tushunchaga ega bo'lisi;
 - turli gidrotexnika inshootlarining ta'mirlash texnologiyasini bilishi; gidrotexnika inshootining kelajakdagi foydalanishiga loyiqligini yoki rekonstruksiysi kerakligini texnik – iqtisodiy asoslashni bilishi;
 - turli gidrotexnika inshootlarining ta'mirlash texnologiyasidan foydalana olishi haqida bilishi kerak.
 - turli gidrotexnika inshootlarining ta'mirlash usullari va rekonstruksiyasini bajarish haqida bilishi;
 - turli gidrotexnika inshootlarining ta'mirlash texnologiyalari va va ulardan foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lisi kerak.
10. Gidrotexnikada geoaxborot tizimlaridan foydalanish
- GATda axborot va ma'lumot tushunchalari va ma'lumotlar manbalari. Global geoma'lumotlar bazalari. Relyefning raqamli modeli (RRM);
- GAT va suv (ombori) xavzasasi. Suv xavzasini ishlab chiqish metodlari, texnologiyari va dasturiy ta'minotlari. ;
 - Taklif etilayotgan tog'on stvorida suv om-bori parametrlarini aniqlash va tahlil qilish.;
 - Suv omborlarida bug'lanish va infiltratsiya jarayonlarini GAT muhida kuzatish va hisoblash;
 - Daryo o'zanlari yuz beradigan morfologik jarayonlarni kuzatishda MZ va GAT.
- Sel va suv omborlarining qurilishi hamda ularning ekspluatatsiya qilishda, daryo va kanallarda suv sarfini o'chash hamda qirg'oqlaridagi o'zgarishlarni kuzatish va boshqa gidrotexnika bilan bog'liq jarayonlarda GAT dasturlaridan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lisi va ulardan foydalana olishi.
- Masofadan zondlash ma'lumotlari va dala kuzatuv (geodezik o'chov va boshqa) ma'lumotlari asosida gidrotexnika bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rGANISH, tahlil qilish, bashoratlarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishda Geoaxborot tizimi muhitidadan unumli foydalanish.

11. Gruntlar mexanikasi. Zamin va poydevorlar Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga gruntlarning turlari, strukturalari, mexanik, suv hamda fizik xossalari o'rgatish, yuqorida tushayotgan yuklamalar ta'sirida gruntlarning cho'kishi va siljishini hisoblash, yuza, chuqur va qoziqli poydevorlar turlari ularni hisoblash hamda loyihalashtirish masalalari bo'yicha yo'naliш profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.
- talabalarga gruntlarning tabiatи va turlari, gruntlarning qattiq zarrachalari va donadorlik tarkibi, gruntlarning tuzilishi, gruntlarning namligini yuqori plastiklik chegarasidagi va quyи plastikliklik chegarasidagi namliklar aniqlash, gruntlarning asosiy fizik, mexanik va suv xossalari, zamin va poydevorlarni loyixalash va ularga qo'yiladigan talablar. Alovida poydevorlarning siljishga va agdarilishga bo'lgan ustivorligini tekshirish. Sayoz joylashgan poydevorlarni loyihalash. Poydevor o'lchamlarini aniqlash. Qoziqlar va qoziqli poydevorlarning tasnifi, xisoblash usullari. Qoziqli poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyatini xisoblash va qoziqlar sonini aniqlash. O'ta cho'kuvchan lyossli gruntlarda barpo etiladigan poydevorlar. Chuqur joylashgan poydevorlar. Sun'iy zaminlar. Gruntlarni almashtirish, zichlash va qotirish usullari.
12. Injenerlik konstruksiyalari Fanning vazifasi talabalarga suv xo'jaligi va bino inshootlarini qurishda, ta'mirlashda va rekonstruksiya qilishda ularning konstruktiv yechimlarini tahlil eta bilishni xamda vujudga keladigan texnik-iqtisodiy muammolarni mustaqil va oqilona hal etishni o'rgatishdan iborat. Talabalarga suv xo'jaligi va melioratsiya tizimidagi bino va inshootlarning konstruksiyalarini zamonaviy talablar va ilg'or texnologiyalar asosida loyihalash va hisoblash asoslarini o'rgatish bo'yicha yo'naliш profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalni shakillantirishdir.

13. Injenerlik konstruksiyalari va tabiatni muxofaza qilish inshootlari injenerlik konstruksiyalarning hisoblash usullarini; injenerelik konstruksiyalarini loyihalashda ularga quyiladigan asosiy talablarni; injenerlik konstruksiyalarini loyihalashda, qurishda va ulardan foydalanishda amaldagi me'yoriy hujjalardan oqilona foydalanish; turli xildagi injenerlik konstruksiyalari va ularning qo'llanilish soxalarini; injenerlik konstruksiyalarini barpo etishda qo'llaniladigan asosiy materiallarning fizik-mexanik xossalari va konstruksiya elementlari ularni tashqi yuklar tasirida zo'riqqanlik xolatlari.
 Ko'nikmaga ega bo'lish:
 injenerlik konstruksiyalarini qurish uchun materiallarni to'g'ri tanlay bilish; konstruksiya elementlarini biriktirish usullari; metall, yog'och, temir-beton va boshqa konstruksiyalarini loyihalashni va hisoblash;
 bino va inshootlarning konstruksiyalarini tahlil etishni va ularni optimal yechimlarini aniqlash;
 konstruksiyalarning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.
 Kompetensiyalarni shakllantirish:
 suv xo'jaligi bino va inshootlarini konstruksiyalash qobiliyatini shakillantirish;
 suv xo'jaligi bino va inshootlarini loyixalashda progressiv loyixalash usullarini qo'llash va ularni konstruktiv yechimlarini takomillashtirish;
 suv xo'jaligi bino va inshootlarini qurishda va ularni rekonstruksiya qilishda zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish;
14. Kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xizmatining tuzilishini;
 - kanaldagi gidrotexnika inshootlar ish rejimlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
 - gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi tu'g'risida tushunchaga ega bulishii;
 - gidrotexnika inshootlari, ularning ishlash sharoitlarini bilishi.
 - Kanaldagi gidrotexnika inshootlari ekspluatasiyasi sohasida ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini bilishi;
 - Kanaldagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish jarayonida olib boriladigan nazoratlar, qo'llaniladigan nazorat o'chov asboblari (NO'A) haqida bilishi va ulardan foydalana olishi.
 - - kanaldagi gidrotexnika inshootlar va ular tarkibidagi elementlarining kamchiliklari va shikastlanishlarini aniqlash, ularni ta'mirlashni, ekspluatatsiya xizmatida faoliyat olib borish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
15. Me'morchilik Fanni o'qitishdan maqsad - Fanini o'rgatishdan maqsad - talabalarda me'moriy loyixalash asoslari sohasida, loyihalash asoslari va uslublari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir. Memorhilik mukammal va guzal inshootlar va komplekslarni qurishda insonning ijodiy faoliyati sifatida boxalanishi. Fannig maksadi va vazifalari, mazkur yunalishdagi bakalavrlar va magistrlar tayyorlashdagi o'rni. Xukumatning respublika me'morchiligi, xamda suv xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qarorlari.

16. O'zan oqim dinamikasi va o'zanni rostlash Fanni o'qitishdan asosiy maqsad - talabalarga daryo o'zanida tabiiy sharoitda bo'ladigan jarayonlar, undagi oqiziqlar, ularning turlari, xarakatlanishi, ularning miqdorini dala sharoitida aniqlash, daryolardagi oqim tartiboti, oqim planini qurish, daryoning egri va to'g'ri uchastkalaridagi oqim xarakatini o'rghanish Daryolarning tasnifi(S.T.Altunin, E.Daneliya, Velikanov) gidromorfologik ifodalar, tubda yotgan qattiq zarrachaga ta'sir qiluvchi kuchlar, oqiziqlarning daryoning jonli kesimi bo'yicha taqsimlanishi. Gidrouzellar va suv omborlarining yuqori b'eflari oqiziqlar bilan qoplanishi, pastki b'efdagi o'zan jarayonlari va ularni xisoblash, sel va sel oqimlari xaqida ma'lumotlar, sellarning asosi y parametrlarini aniqlash. O'zan rostlash inshootlari, ularning tasnifi, konstruksiyalari: bo'ylama dambalar, ko'ndalang dambalar, tanasidan suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan, kombinatsiyalashtirilgan dambalar: ularni xisoblash usullari, damba boshidagi maxalliy yuvilish chuqurligini aniklash, poymada joylashgan inshootlarni loyilash va xisoblash, dambalar oraligini o'zlashtirish va uning oqimga ta'siri,nosimmetrik joylashgan inshootlari loyixalash, oqimni yo'naltiruvchi tizimlar ishini o'rghanish, daryoda rostlangan o'zan xosil qilish sxemalari: bo'ylama, ko'ndalang va aralash dambalar yordamida, daryolarning qirg'oqlarini mustaxkamlash, toshqinga karshi kurash, qirg'oqlarni yuvilishdan ximoya qilish oqimni kerakli yo'nalishga burish uchun inshootlarning konstruksiyalarini zamonaviy talablar va ilg'or texnologiyalar asosida loyihalash va hisoblash asoslarini o'rgatish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.
17. Gidrotexnika inshootlar hisobi Ushbu fanni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarni gidrotexnika inshootlari sohasidagi ilmiy-texnikaviy ishlasmalarning asosiy yo'nalishlari, suv xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan barcha turdagи gidrotexnika inshootlari, ularning konstruksiyalari, ulardan foydalanish sharoitlari, qurilish asoslari bilan tanishtirishdan iborat. gidrotexnika inshootlari va gidroagregatlarini hisoblash va loyihalash, loyihalash va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirish.

Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'tiladigan fanlar ro'yxati

18. Gidrotexnikada ilmiy tadqiqot magistrantlarni gidrotexnika sohasida uchraydigan turli masalalarni tahlil etishi, mustaqil fikrashi, gidrotexnik inshootlarini modellashtirish, rejalashtirish, tadqiqot o'tkazish, tajribalarni randomizatsiyalash, olingan natijalarni tahlil qilishi va o'zining kasbiy faoliyatida foydalana olishi o'rgatishdan iborat.

19. Selga qarshi gidrotexnika inshootlari chuqurlashtirilgan holda sel oqimi turlari, zorbasi, harakati qonunlarini bilishi;
- chuqurlashtirilgan holda eroziyaga qarshi, sel to'xtatuvchi, to'siqlardan sel o'tkazuvchi gidrotexnika inshootlar, ularni konstruksiyalari, ularni hisoblarni bajarish va loyihalashtirishini bilishi;
 - sel ta'siridan ob'ektlarni va sel o'zanini himoyalovchi gidrotexnika inshootlar, ularning konstruksiyalari, xususiyatlari, ularga qo'yiladigan talablarini bilishi;
 - selxona va selsuvomborlari, sel va suv oqimini to'suvchi to'g'onlar, ularning konstruksiyalari, xususiyatlari, bilishi;
 - selsuvomborlari va hayot faoliyati xavfsizligi, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini bilishi;
 - suv tashlovchi gidrotexnika inshootlar, ularni turlari, suv omborini suvdan bo'shatuvchi gidrotexnika inshootlar va turiga muvofiq konstruksiyalarini bilishi;
 - toshqin suvlarini o'tkazuvchi gidrotexnika inshootlar hisoblarini va ulardan foydalana olishini haqida bilishi lozim
 - selni turlari, harakati, xususiyatlari, sel paydo bo'lishi o'choqlari, sabablari, sel oqimlarini hisoblash nazariy asoslari, sel oldinini olish uchun chora tadbirlari va shakllangan selga qarshi gidrotexnika inshootlari va o'zanni rostlash inshootlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - selga qarshi gidrotexnika inshootlari va o'zan rostlash inshootlarini loyihalash, qurish va zamonaviy konstruksiyalarini hisoblashning nazariy asoslarini bilishi;
 - selga qarshi gidrotexnika inshootlari va o'zan rostlash inshootlarini loyihalash, qurish va zamonaviy konstruksiyalarini hisoblashning nazariy asoslarini bilishi;
 - selxona va selsuvombori to'g'onlari tanasi va asosidagi filtratsiya turlari, inshoot asosning filtratsiyaga mustahkamligi, filtratsiya suvlarining ta'sirini hisoblash usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
 - turli xil selga qarshi gidrotexnika inshootlari va o'zan rostlash inshootlarini loyihalashini bilishi lozim.
 - selni turlari, xususiyatlari, sel paydo bo'lishi o'choqlari, sabablari, sel oqimlarini hisoblash nazariy asoslari, sel oldinini olish uchun chora tadbirlari va shakllangan selga qarshi gidrotexnika inshootlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
 - chuqurlashtirilgan holda eroziyaga qarshi gidrotexnika inshootlarni, selga qarshi va o'zan rostlash gidrotexnika inshootlarining konstruksiyalarini va selxona va selsuv omborlari konstruksiyalarini va ularning loyihalashtirish haqida bilishi,
 - turli xil selga qarshi gidrotexnika inshootlarini loyihalash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
20. Gidrotexnika inshootlarini loyihalash «Gidrotexnika inshootlarini loyihalash» kursning asosiy maqsadi gidrotexnika inshootlari ishlashi to'g'risida chuqur bilimlarni shakllantirish hamda daryolarda quriladigan yirik gidrouzellarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha bilimlar darajasini oshirishni ko'zda tutadi.

21. Gidrotexnika inshootlaridagi nazorat o'Ichov apparaturalar "Gidrotexnika inshootlaridagi nazorot-o"Ichov apparaturalari" fani talabaning dunyoqarashini shakllantirish; magistrlarni mutaxassis sifatida shakllantirish, ularning mantiqiy va algoritmik fikrlashlarini rivojlantirish, zukkligini oshirish; tabiiy jarayonlar, hodisalar va qurilmalarni modellashtirishda, asosli tahlil qilishda, texnik va iqtisodiy masalalarning optimal echimlarini qidirishda, ularni amalga oshirishning eng yaxshi yo'llarini tanlashda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni o'rgatish, shuningdek ekspluatatsiya qilinayotgan gidrotexnika inshootlarida o'rnatilgan nazorot-o'Ichov apparaturalari, ularning konstruktсиyalari, o'rnatish tartibi, ularni boshqarish, kuzatuv natijalariga ishlov berish, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslikka doir majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni berish vazifalarini bajaradi.
22. Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi, ularni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish asoslari chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatiladi.
23. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanishdagi ishonchliligi va xavfsizligi Gidrotexnika inshootlaridan foydalanishdagi ishonchlilik va xavfsizlik kursining maqsadi: magistrantlarga gidrotexnika inshootlaridan foydalanishdagi ishonchlilik va xavfsizlik ta'minlashda gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyatlarda gidrotexnika inshootlarini xavfsizligini ta'minlashdan iborat.
24. Gidrotexnika inshootlari ishonchliligi monitoringi Magistratura talabalarida chuqurlashtirilgan holda Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi monitoringi bo'yicha mutaxassislik profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.